

# **Bolalar quvonchi - baxtdan nishona**

Bolalar quvonchi - baxtdan nishona

Koronavirus infeksiyasi tarqalib, dunyo ahlining halovatidan ayirgan va odamlardan zarurat bo'lmasa ko'chaga chiqmaslik so'ralayotgan shu kunlarda saxovatli insonlarning xayrli amallari odamlarga xotirjamlik bag'ishlamoqda.

Xususan, Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdievning tashabbusi bilan bugun "INDENIM" savdo majmuasi tomonidan shahrimizdagi maktablarda tahsil olayotgan kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 156 nafar farzandlariga qishgi kiyimlar jamlanmasi topshirildi.

Bolalar... Ular bizning kelajagimiz, boshlagan ezgu ishlarimizning davomchilari, ko'zimizning nuri, qalbimiz sururi. Ular bilan hayotimiz obod, ko'nglimiz charog'on. Shu sababli ham bolalarimiz baxtli bo'lishlari uchun hamma narsamizni berishga tayyormiz. Ayniqsa, bugun bolajonlarimiz quvonchiga-quvonch qo'shgan "INDENIM" savdo majmuasiga shahar hokimligi va ushbu oilalar nomidan o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz